

YAPON MULOQOT JARAYONIDA INKOR LEKSEMALARNING
LINGVOKULTURALOGIK TAHLILI

Boymurodova Dilafroz Dilshod qizi

SamDCHTI o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18397948>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yapon tilidagi inkor shakllarining muloqot jarayonida qo'llanilishi lingvokulturologik va pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Xususan, "yo'q" so'zining kontekstga bog'liq holda ijobiy yoki salbiy ma'no kasb etishi, qo'sh inkor konstruksiyalarining nutqiy vazifasi va yapon muloqot madaniyatida bilvosita ifodaning ustunligi misollar asosida yoritib beriladi. Tadqiqotda yapon va o'zbek tillaridagi inkor shakllarining muloqotdagi farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: inkor kategoriyasi, qo'sh inkor, yapon tili, lingvokulturologiya, pragmatika, muloqot.

Abstract. This article analyzes the use of negation structures in Japanese conversational discourse from a linguocultural and pragmatic perspective. Particular attention is paid to the contextual meanings of negative responses, especially the word "no," which may express affirmation or denial depending on the communicative situation. The study also examines double negation constructions and their role in expressing obligation, emphasis, and indirectness in Japanese communication. A comparative analysis with Uzbek language discourse highlights the cultural specificity of negation strategies.

Key words: negation, double negation, Japanese language, linguoculturology, pragmatics, discourse.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности употребления отрицательных конструкций в японском языке с лингвокультурологической и прагматической точки зрения. Анализируется функциональная многозначность слова «нет» в зависимости от коммуникативного контекста, а также роль двойного отрицания в выражении обязательности, утверждения и косвенности высказывания.

Проводится сопоставительный анализ отрицательных форм японского и узбекского языков в процессе общения.

Ключевые слова: категория отрицания, двойное отрицание, японский язык, лингвокультурология, прагматика, коммуникация.

Jamiyada til sohalari va unga yordamchi fanlar rolini o'sib borishi natijasida bu fanlarni oldida turgan muammolar ko'lami tobora yaqqol namoyon bo'lib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar, birinchi navbatda tilshunoslik zimmasiga yanada ma'suliyatli vazifalarni yukladi.

Zero, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruxiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16-aprel sanasidagi qabul qilingan "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini

¹Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". Toshkent., 2010. B.10.

oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4680-son qarorida ham Sharq mamlakatlarining tillari va adabiyoti, tarixi, madaniyatini o'rganish belgilab qo'yildi.² Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yapon tiliga bo'lgan etibor yanada ortmoqda. Shu sababli bugungi kunda yurtimizda ilmiy faoliyat olib borayotgan ko'plab yaponshunoslarimiz tomonidan ushbu tilga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar keng o'rganilib borilmoqda. O'rganilayotgan ishlar doirasida yapon muloqot matnlaridagi inkor munosabatlarning namoyon bo'lishi haqida qisqacha yoritib bermoqchimiz. Edo (1603-1868) davrida yapon tili sezilarli darajada o'zgarishlarga uchraydi. Bu o'zarishga inkor shakl doirasida qaraydigan bo'lsak, bu davrda eng ommalashgan va standartlashgan Inkor shakl sifatida -nai dan foydalana boshlashdi. Bu bilan faqatgina bitta -nai morfemasining o'zi bilan inkor yasab bo'lmaydi. Buning uchun kontekstdagi ma'noga qarab yoki so'zlovchining bayon qilayotgan maqsadiga qarab boshqa inkor shakllardan foydalanishgan.

Umuman olganda yapon tildagi inkor shaklining tarixi va ularning qo'llanilishi qiziq va murakkab mavzu hisoblanadi. Tilni va uning tarixini o'rganish bu bir millatning rivojlanish evalutsiyasini o'rganish bilan barobar hodisadir³.

Naukaning fikriga ko'ra til aloqasi - nutqiy harakatni amalga oshirishda, xarakatlarni amalga oshirish vaqtida muxim rol o'ynaydi. Insonning bir-birlari bilan muloqotida verbal va noverbal kontekstlar ustida olimlar ancha vaqtlardan buyon izlanishlar olib borishmoqdalar. Tilni aloqa usullari haqida gapirsak - nutq shartligini, bir jamoa vakillari uchun xos bo'lgan shakllar orqali ifodalanishi bilan ajralib turadi.

"Tildan tashqari (iqtisodiy, madaniy va moddiy) hayot tilda o'ziga xos birgina omilni emas balki, bu omillarning to'liq majmuasini va ayrim kichik omillar ta'sirida tadbiiq qilinadi"⁴ deb aytgan D. Polivanov. Bu nazariyadan biz bir-biridan uzoq tillarni solishtirganda masalan: yapon tilini hind-yevropa tillari bilan o'rgangan vaqtida kundalik nutq harakatlarimiz ta'sirida yuzaga chiqadi.

Polshalik yaponolog Vislav Kotanskiy "Yapon tilida kodlash, ya'ni lingvistik ibora yasash jarayonini tushuntirayotganda yaponlarning xatti-harakatlarni, ularning talaffuziga bo'lgan munosabatini va nutq vaqtidagi mavqeini zaruriy jarayon sifatida qaraydi. Shu sababli ham ularning lisoniy harakatlari yetarli darajada farqlanishi mumkin. Agar siz ularning muloqot jarayonini eng oddiy misollardan o'rganishni boshlasangiz quyidagi misollar orqali talqin qilishingiz mumkin bo'ladi.

"Bu sizning sumkangizmi?" "Derazani ochsam, qarshimasmisiz?"

Ko'rinishdagi savollarga o'zbek yoki rus tillarida quyidagicha javoblarga guvoh bo'lishingiz mumkin.

"Yo'q, meniki emas" *"Men qarshi emasman"*⁵ ko'rinishida javob beriladi. Bu

javoblar kundalik muloqotlardagi oddiy savol-javoblar. Yaponlarning bu savollarga javoblarini ko'rib o'tamiz.

Ha, meniki emas

Ha, qarshi emasman

² <https://lex.uz/>: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 16-апрелдаги ПҚ-4680-сон қарори.

³ Haspelmath, Martin. 2005. Negative indefinite pronouns and predicate negation.(65)

⁴ Сугано, Р. Турсунова. Н Стилистика японского языка Ташкент 2009. с 86

⁵ みんな日本語中級 1 本冊 2 0 0 9 年 3 月 3 日 223p

mazmunidagi javoblarni berishdi. Bu jarayon xususida professor Kotanskiy o'z fikrini quydagicha bayon qilgan. Agarda yaponlar bir-birlariga *‘yemaysizmi?’* degan savol bilan yuzlanishsa ular bu savolga *‘yo‘q’* deb javob bersa ular bu savolning mazmunini rad etishadi, ya'ni ularning javobi *‘albatta yeyman’* degan ma'noni anglatadi. Agarda shu savolga yoki shunga o'xshash savolga *‘iie’* (yo‘q), undan keyin bu savolning mazmuniga umuman bog‘liq bo‘lmagan javobini va xatti-xarakatlari orqali namoyon qilsa buning ma'no mazmuni *‘men yemayman’* ifodasini beradi. Bundan ko‘rib turibmizki *‘yo‘q’* so‘zining vazifasini tushinish va uning to‘g‘ri qo‘llanilishi, uning turli xil mazmunga ega bo‘la olishini ta‘minlaydi. Bunday misollarni yaponiya axolisini suxbatlarini tinglaganda yoki ular bilan suxbat chog‘ida ko‘plab uchratish mumkin. Har qanday tilni o‘rganish jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan va eng oson so‘z *‘ha’* yoki *‘yo‘q’* ni o‘rgnishdan boshlanadi. *‘Ha’* deyish oson tushiniladigan jarayon bo‘lib *yo‘qga* nisbatdan qiyin va yana izoh talab etadigan ma'noni anglatadi. *Hech kim menga qo‘ng‘iroq qilmadimi?*

degan savol yapon tilida berilsa unga *‘albatta deb javob beriladi*. Bu savol davom ettirilib *Kim?* deyilsa *‘Xech kim’* degan javob beriladi. O‘zbek yoki rus millati vakillariga bu savol berilsa oddiygina *Yo‘q* deb javob beriladi. Bundan anglashiladiki ular salbiy javobdan ko‘ra ijobiy javob berishga urinishadi. Mashhur yapon yozuvchilaridan biri Tanizaki Junichiro *‘... So‘zlashuv xalqimizning tabiatiga mos bo‘lmagan hodisadir. Yaponlar og‘zaki emas balki, og‘zaki bo‘lmagan muloqotni afzal ko‘rishadi’*⁶ deb takidlagan edi. . Shu sababli ham ular ko‘p so‘zlashdan qochishadi. Ba‘zan bu bayonotni tushunish suxbatdosh uchun murakkablikni keltirib chiqaradi.

Ritorik savollar berish orqali suxbatdoshning fikrini ijobiy yoki salbiy ekanligini quyidagi shakllar orqali aniqlash mumkin:

- dewanai deshyou - shunday bo‘lmasmik...
- (ja nai) ka to omimasu kedoo - shunday emas deb o‘ylayman lekin...
- iwasona kiga shimasuga – aytmaydigandek tuyilyabdiyu... kabi inkorni ifodalab keluvchi kanstruksiyalardan foydalanishadilar. Inkori strukturalarini muloqot jarayonidagi holatini grammatik nuqtai-nazarda tahlil qilib o‘rganilgan. Yapon olimlarining ayrimlari qo‘shaloq inkor - nakereba naranai ikkita inkorni o‘zida mujassamlashtirgan, -nai demo nai, nai kotomo nai kanstruksiylaridan foydalanadilar. Yaponlar suxbatda suxbatdoshiga oddiygina qilib qo‘shilaman, bajaraman deyish sodda ko‘ringanligi uchun ketma -ket to‘rtta inkorni qo‘shib gapirishadi.

Masalan 明日は勉強しなければなりません。 Na-kere-ba nara-na-i - men buni albatta bajaraman, bajarish shart degan ma'noni ifodalaydi. Bunday ikki inkorlardan foydalanib yapon shoirlari ham o‘z asarlarini bezashni yoqtirishgan. Bunda ko‘rinib turibdiki ikki inkor bir -biri bilan qo‘shilib foydalanilgan vaqtida javob ijobiy, shart va ta‘kid ma‘nosiga aylanadi⁷.

Birinchi marotaba rad etilgan so‘zni ikkinchi marotaba rad etish mantiqan tastiqlovchi bilan ma'no jihatidan bir xil, ammo tuzilish jihatidan inkor strukturasi bilan ifodalanadi⁸. Bundan ko‘rinib turibdiki biz rad etayotgan holatda qo‘sh inkorlardan bilib bilmagan holda foydalanishimiz manfiydan musbat ishoraga qarab boradi va so‘zni tastiqlovchiga aylantiradi.

⁶ Roy Andrew Miller. The Japanese Language. -- Tokyo: Charles E. Tuttle company, 2009.- 128p

⁷ 陶振孝 (1991) 「日本語の二重否定について」 『日本語学』 vol.10 No. 6 明治書院 35p

⁸ (1994) 「日本語の二重否定の構造」 『日本学研究論集』 北京外国語大学日語友 76p

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, yapon tilidagi inkor shakllari nafaqat grammatik hodisa, balki muloqot madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan pragmatik birlik hisoblanadi.

Inkor vositalari ko‘pincha bevosita rad etishdan ko‘ra, bilvosita tasdiq, ehtiyotkorlik yoki hurmat ifodalash vazifasini bajaradi. Ayniqsa, qo‘sh inkor konstruksiyalarining keng qo‘llanilishi yapon tilida ijobiy ma‘no, majburiyat va qat‘iylilikni ifodalashning muhim usuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu holat yapon va o‘zbek tillarida inkor kategoriyasining lingvomadaniy jihatdan farqlanishini ko‘rsatadi hamda inkor shakllarini o‘rganishda kontekst va muloqot vaziyatini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. Toshkent., 2010. B.10.
2. Haspelmath, Martin. 2005. Negative indefinite pronouns and predicate negation.(65)
3. Сугано. Р. Турсунова. Н Стилистика японского языка Ташкент 2009. с 86
4. Roy Andrew Miller. The Japanese Language. - - Tokyo: Charles E. Tuttle company, 2009.- 128p
5. Makhmudovna L. F. Introduction Of Advanced Pedagogical And Information And Communication Technologies Into The Educational Process In Teaching Japanese Hieroglyphs //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2023. – T. 24. – С. 1-5.
6. Маматкулова, Х. (2019). Особенности японской историографии в литературе периода Хейан. Иностранная филология: язык, литература, образование, 4(1 (70)), 59-63.
7. O.F. Achilova. A contrastive study of english and japanese grammar: structural, morphosyntactic and pragmatic perspectives. Vol. 13 No. 11 (2025): FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities. –117-120 p.
8. みんな日本語中級 1 本冊 2 0 0 9 年 3 月 3 日 223p
9. 「日本語の二重否定について」 『日本語学』 vol.10 No. 6 明治書院 35p 陶振孝 (1991)
10. 「日本語の二重否定の構造」 『日本学研究論集』 北京外国語大学日語友 (1994)
11. <https://lex.uz/>: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 16-апрелдаги ПҚ-4680-сон қарори.
12. https://www.researchgate.net/publication/391422842_YAPON_MULOQOT_JARAYONIDA_A_INKOR_KATEGORIYASINING_SHAKLLANISH_BOSQICHLARI
13. <https://tijst.org/index.php/USA/article/view/1818> 二字熟語 [NIJI JYUKUGO] IKKI IYEROGLIFLI SO‘ZLARNING ZAMONAVIY YAPON TILI TIZIMIDAGI O‘RNI